

MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA VOSITALARI

Charos Mahmudova Baxtiyor qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

3-21-guruh talabasi

E-mail : charosmahmudova8@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'limning mazmun -mohiyati, yetakchi xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan masofaviy ta'limning kelib chiqishi haqida yoritib beriladi. Bundan tashqari masofaviy ta'limning afzalliklari, masofaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari tahlil qilinadi. Masofaviy ta'limni tashkil etish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Masofaviy o'qish jarayonida darslar o'tiladigan platformalarning ishlash prinsiplari haqida yoritib beriladi.

Abstract: This article describes the essence of distance education, the distance education models used in leading foreign countries. In addition, the essence of computer education and computer education technologies are discussed. The uniqueness of distance education and its convenience are analyzed. Information about the stages of distance education organization is given.

Аннотация: В данной статье раскрыта сущность дистанционного образования, модели дистанционного образования, используемые в ведущих зарубежных странах. Кроме того, рассмотрена сущность компьютерного образования и технологии компьютерного образования. Анализируются уникальность дистанционного образования и его удобство. Приведена организация дистанционного образования.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, axborot -kommunikatsion texnologiyalar, masofaviy ta'lim bosqichlari, Zoom dasturi, EATR.

Globalashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr ta'lim oluvchilar, shu jumladan o'quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Yoshlarning ta'lim olishi uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratib berilmoqda. An'anaviy ta'limga sharoiti yo'qlar uchun masofaviy ta'lim turlari tashkil etilgan. Zamonaviy sharoitda axborot -kommunikatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim jarayonida ularning imkoniyatlaridan foydalanish uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi. Ayni vaqtda yetakchi xorijiy mamlakatlarda masofadan o'qitish borasida boy tajriba to'plangan. O'zbekiston sharoitida mustaqillik yillarida ta'limning bu turini qo'llashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ushbu ta'limning mazmuni, uning o'ziga xosligi haqida fikr yuritishimizdan

avval, ushbu tushunchaning ta’rifi haqida bilmog‘imiz lozim. Masofaviy ta’lim -muayyan nuqtadan axborot -kommunikatsiya vositalari(video, audio, kompyuter, multimedia,radio, televidenie va h.k)yordamida ta'lim xizmatlarini ko‘rsatish , ta’limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishda an'anaviy hamda innovatsion shakl,metod va vositalarga asoslangan holda ta’lim resurslaridan foydalanishga yo‘naltirilgan ta’lim.Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, masofaviy ta’lim shaklida o‘qimoqchi bo‘lgan talabalar axborot texnologiyalaridan oqilona foydalana olishlari lozim.Barcha OTMlarning masofaviy o‘qitish platformalari vazirlikning <https://dist.edu.uz/> yagona portaliga birlashtirildi .Ya'ni oliy ta’lim muassasalarining masofaviy ta’lim platformalariga o‘tish yagona portali orqali amalga oshiriladi.Bu esa OTMlar o‘rtasida resurslardan hamkorlikda foydalanish imkonini beradi.Hozirda ushbu platformaga foydalanuvchilar tomonidan bo‘layotgan kunlik murojaatlar soni 50mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Masofaviy ta’limda darslar "Zoom" dasturi yoki videochatlar orqali o‘rgatiladi.Zoom-videokonferensiya uyushtirish imkonini beruvchi dastur.2020-yilgi pandemiya vaqtida masofadan ishlovchilar va masofadan ta’lim oluvchilar,hamda internet orqali jamoaviy suhbatlar uyushtiruvchilar soni oshgani sababli Zoom dasturi dunyo bo‘ylab ancha ommalashdi . Masofaviy ta’lim texnologiyasi 1969-yilda Angliya premerministri G.Vilson tashabbusiga ko‘ra shakllantirilgan deb qaraladi. Ammo masofadan o‘qitish ancha oldinroq, muntazam pochta aloqasining shakllanish davrida yuzaga kelgan .An'anaviy ta’limga qaraganda, masofaviy ta’limning qulayliklari ko‘p.Birgina misol.Angliyada an'anaviy o‘qishga 3000, masofaviy bilim olishga esa 300 funt mablag‘ to‘lanadi.Ushbu ta’limda „Edent" ta’lim tarmog‘idan foydalanilgan . Ta’lim oluvchilar an'anaviy texnologiyalarga nisbatan axborot va kommunikatsion texnologiya (AKT) yordamida bilimlarni 40-60% gacha tez va qisqa muddatda o‘zlashtiradi.O‘quv yurtlarida masofaviy ta'limning tashkil etilishi muayyan jarayon sifatida kechadi . Tabiiyki,har bir jarayon ma’lum bosqichlarda amalga oshiriladi.Masofaviy ta’limni tashkil etish bosqichlari quyidagilar:tahlil bosqichi; joriy qilish bosqichi; ishga tushirish bosqichi; loyihalashtirish bosqichi; o‘quv kontentlarini yaratish bosqichi; rivojlantirish bosqichi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari -ta'limning belgilangan mazmun asosida amalga oshirilishini ta'minlashga yo‘naltirilgan shakl,metod va vositalar majmuasidir.Ushbu texnologiyalar ta’lim axborotlarini taqdim etish , ta’lim axborotlarini uzatish hamda ta’lim axborotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyalarini o‘z ichiga oladi.Masalan,ta'lim texnologiyalari orasida elektron axborot ta’lim resurslari (EATR) muhim o‘rin Masofaviy ta’lim tizimida EATR elektron axborot tashuvchi vositalar -disketa ,CD-ROM ,DVD kabilarda o‘quv axborotini tashish yoki Internet tarmog‘i orqali elektron pochta orqali yuborish imkoniyatini ta’minlaydi . Aksariyat hollarda tinglovchilar EATR bo‘yicha o‘quv axborotlarini Internet tarmog‘iga bog‘langan holda tegishli saytlardan oladi .

Hozirgi vaqtda Rossiyada masofadan o‘qitish bo‘yicha 200ming nafar talaba bilim olmoqda .Yaqin vaqtlar ichida ularning soni 500-600 mingga yetadi.V.Kufelning fikricha, "bilimlarni o‘rgatish usullari bilim inqilobidan"orqada qolib ketishi mumkin emas .Ta'lim oluvchilardan ta'limning ko‘rgazmalilik turidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.Negaki inson ko‘rib o‘rgangan narsasi ko‘proq xotirasida saqlanib qoladi.

Masofaviy ta’lim tizimi rivojlanishining uchinchi bosqichi 80-yillarning o‘rtalarida Internetning paydo bulishi va ommaviylashishi bilan bog‘liq. Uning ta’siri juda katta bo‘lgani bois, "ko‘plar ko‘pchilik bilan" aloqasi va axborot almashish tizimi umunikiga aylandi. Vaqt va geografik cheklanishlarga qaramasdan masofaviy ta’lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchilar soni ortdi. Zaminaviy kommunikatsiya tizimining rivojlanishi tufayli axborotni yetkazish usullari radio integratsiyasi, axborotni yer sharining istalgan nuqtasida juda tez uzatishga imkon beruvchi telefon, telegraf, aloqaning yo‘ldosh va kabel tizimi orqali axborotlarni yetkazib berish.

Xulosa qilib aytganimizda, masofaviy ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchilarda ko‘pgina qulayliklarni yaratadi. Masofaviy ta’lim shaklini tanlagan talabalar o‘z hududlaridan turgan holda, axborot texnologiyalari orqali dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtiradilar. Darsda ayrim sabablarga ko‘ra qatnasha olmagan talabalar uchun darsning audio va vide dars shakli tashlab beriladi. Ular bu manbalar orqali qoldirgan darslarini qayta o‘zlashtirib oladilar. Yangicha usul va vositalar orqali darsni tashkil etishni o‘rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ne‘matov O., Umirova M. Boshlang‘ich ta’lim jarayonini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati // O‘zbekistonda ilmiy-innovatsion tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 2. – Yo‘q. 4. – 77-81-betlar.
2. M.Kadirov "Axborot texnologiyalari" Toshkent-2018.
3. O.Ne'matov "TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" "Science Shine International scientific journal"-2023.
4. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev, „Innovatsion ta’lim texnologiyalari" o‘quv metodik qo‘llanma Toshkent :2015
5. M.Aripov, B.Begalov, U.Begimqulov, M.Mamarajabov, „Axborot texnologiyalari" o‘quv qo‘llanma Toshkent -2009
6. S.S.Muxlisov, R.U. Kuchkarboyev, F.X.Xazratov, „Ta’limda axborot texnologiyalari" o‘quv qo‘llanma, Buxoro -2021
7. S.S.G‘ulomov va boshqalar. "Axborot tizimlari va texnologiyalar" darslik Toshkent., „Sharq" 2000-y.